



**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**



FAN:

**Mashinalardan foydalanish va
texnik servis**

**MAVZU:
№ 10**

**SERVIS KORXONALARINING MATERIAL – TEXNIK
TAMINOTINING TASHKILLASHTIRISH**



SHARIPOV ZAYNIDDIN SHARIPOVICH

**Mashinalardan foydalanish va
ta'mirlash kafedrası dotsenti, t.f.n.**



10-M. Servis korxonalarining material-texnik ta'minotini tashkillashtirish.

REJA:

- 1. Servis korxonalarining material-texnik ta'minoti tizimlari.**
- 2. Omborxonona ishlarining tashkil qilish va uning texnologiyasi.**
- 3. Mashinalarni, ehtiyot qismlarni va materiallarning saqlash xususiyatlari.**

Servis korxonalarining tuxtovsiz ishlashi uchun korxonaga zarur material-texnik resurslar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim, ya'ni har bir ishlab chiqarish siklida talab etiladigan ishlab chiqarish vositalari.

Bunga ehtiyot qismlar, materiallar, asbob-uskunalar va boshqalar kiradi. Bu zarur narsalarning servis korxonalari asosan **distribyuterlik tizimlari orqali olishadi.**

Distribyuter – ko‘tara (optaviy) vositachi, magazinlardan, korxonalardan, firmalardan va dilerlardan mahsulotlarning sotib olib keyin foyda olish maqsadida sotuvchi.

Vositachilarning asosiy vazifalariga qo‘yidagilar kiradi:

Tovarlarga bo‘lgan talablarning aniqlash va buyurtmalar portfelini tuzish;

Iste'molchilarni ta'mirlash-texnologik uskunalar, ehtiyot qismlar, materiallar, tayyor agregatlar texnologik va tashkiliy jihozlar, asbob-uskunalar va yuvuvchi vositalar bilan ta'minlash;

Tovarlarning saqlash, qayta ishlash va ularning iste'molchilarga yetkazib berish;

Yeyilgan detallarning resursini qayta tiklash maqsadida yig‘ib kelish.

Servis korxonalarining uzluksiz
ishlashining ta'minlash uchun
omborxonalarda materiallar, ehtiyot
qismlar, asbob-uskunalarining zahirasi
bo'lishi kerak.

Omborxonada zahirasi **joriy va sug'urta**
zahirasi iborat bo'ladi.

Joriy zahira bu korxonadagi ish joylariga kerak boʻladigan zarur jihozlarni yetkazib berish turish uchun moʻljallangan. **Sugʻurta zahira** esa material-texnik resurslarning yetkazib beruvchilar tomonidan oʻz vaqtida yetkazib bermagan holatda yaratiladi.

Zahira yaratishning uch xil turi mavjud:

- maksimal;
- minimal;
- oʻrtacha.

Omborxonalar ochiq (naveslar) va yopiq (isitiladigan va isitilmaydigan) turlarda quriladi.

Ochiq omborxonalarda qo'yidagi narsalar saqlanadi:

1. **Katta o'lchamli va og'ir bo'lgan ehtiyot qismlar:** ramalar, yetaklovchi g'ildiraklar, gusenisalarning zvenolari, korpuslar, kojuxlar va boshqalar.
2. **Uskunalar:** kaloriferlar, suv isitkichlar, qozonlar.
3. **Mashinalar:** yer qazish, qurilish-yo'l va tuproqqa ishlov berish.
4. **Qora metallar:** prokatlar, katta-kichik trubalar, neft mahsulotlari uchun trubalar, katta hajmdagi payvandlangan trubalar.
5. **Chuyan trubalar, balkalar va shvellerlar.**
6. **Yog'och materiallari va og'ir kabel mahsulotlari.**

Naves ostida saqlanadi:

1. Yuk va maxsus avtomobillar, avtobuslar, traktorlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va o'rib-yig'ib, terib olish uchun mashinalar.
2. **Sanitar** – texnik uskunalar: zadvijkalar, nasoslar, ventilyatorlar, vannalar, rakovinalar.
3. Moy va yonilg'i tarqatuvchi kolonkalar, stenkalar, ta'mirlash mexanizmlari.
4. **Ehtiyot qismlar:** baklar, kronshteynlar, glushitellar, karterlar, korpuslar, prisep qurilmalari, kabinalar, lonjeronlar va boshqalar.

Yopiq isitilmaydigan omborxonalarda saqlanadi:

1. Yengil avtomobillar.
2. Texnologik uskunalalar.
3. **Elektrotexnika mahsulotlari:** yengil kabel mahsulot-lari, izolyatorlar, elektroizolyasion materiallari, elektrodvigatellar, generatorlar, magnitli puskatellar, pasaytiruvchi transformatorlar.
4. **Rezinotexnik mahsulotlari:** shinalar, pokrishkalar, kameralar.
5. **Polimer materiallari.**

6. Lakokraska materiallari, kislotalar, karbid kalʼsiy, gaz ballonlari.

7. Garaj uchun kompressorlar, motopompalar.

8. Traktorlar, avtomobillar va qishloq xoʻjaligi mashinalari uchun ehtiyot qismlar.

Omborlar, ya'ni maydoni **5** gektardan katta boʻlsa, 2 ta kirish- chiqish joylari va zahira joylari boʻlishi kerak.

Har bir omborxonona binosiga avtomobil yoʻli oʻtgan boʻlishi kerak.

Yo‘l birinchi darajali bo‘lsa, avtomobil yo‘lining eni **6-8 m.**, agarda ikkinchi darajali bo‘lsa **3,4 -4 m.** orasida bo‘lishi lozim.

Omborxonalarda material-texnik vositalarning **saqlash shartlari qo‘yidagilarni ta‘minlashi kerak:**

Bazaga keltirilgan barcha yuklar soni va sifati jihatidan saqlanishi kerak.

Materiallarning stellajlar va shtabellarda saqlash kerak.

Omborxonalarning maydonlaridan va sig‘imlaridan unumli foydalanish.



- **Yuklarning saqlash joylarini va uskunalarning joylashtirishni eng rasional texnologik rejasini qo‘llash.**
- **Zamonaviy yuklash-tushirish vositalarini va texnologik uskunalardan foydalanish.**
- **Har qanday ob-havo sharoitida ham texnologik jarayonlarni bajarish imkoniyati.**
- **Omborxonalarining ish qobiliyatini saqlab turish uchun sarflanadigan xarajatlarning kamaytirish.**
- **Yong‘inga qarshi xavfsizlik va ishlab chiqarish sanitariya qoidalariga rioya qilish.**

Omborxonada uchastkalarining yoritilganlik normalari

Uchastka lar	Eng kam yoritilganlik, lk			
	Lyuminissentli lampalar		Nakalivali lampalar	
	Kombinir lashgan yoritilgan lik	Umumiy yoritilgan lik	Kombinir lashgan yoritilgan lik	Umumiy yoritil ganlik
1	2	3	4	5
Temir yo‘l vet kasida yukning qabul qilish: yukni tushirish uchastkasi	100	100	100	30
Olib kelingan yuklarni vaq tincha saqlash uchastkasi.	75	75	-	20

Tovarlarning saralash va joylashtirish uchastkasi	100	100	100	30
Saqlash uchastkasi	75	75	-	20
Ochiq maydonlarda: Saqlash uchun	75	75	-	20
Metall taralarning ta'mirlash.	750	200	400	100
Detallarning buyash	100	100	100	30
Agregatli	100	100	100	30
Zaryadli	100	100	100	30
Elektropogruzchiklarning garaji.	100	100	100	30
Asosiy va yordamchi material larning omborxonasi	100	100	100	30
Kiyimlarning moysizlantirish xonasi	75	75	-	20

Traktorlar, avtomobillar, qishloq xo‘jalik, meliorativ va qurilish-yo‘l mashinalari o‘zlarining konstruktiv xususiyatlariga ko‘ra **yopiq xonalarda va naves ostida saqlanishi kerak.**

Mashinalarning ochiq maydonlarda qachonki saqlash mumkin, qachonki texnikalarni konservasiya, germetizasiya qilish bo‘yicha ishlar bajarilsa va ba'zi bir qismlari yechib olinib omborxonaga saqlash uchun qo‘yilsa.

Mashinalar, agarda yuzalari korroziyaga qarshi qatlam bilan qoplangan bo'lsa, yoki texnikalar qisqa muddatli saqlashga qo'yilsa **ularning ochiq maydonda yoki naves ostida saqlashga qo'yish mumkin.**

Ochiq maydonda texnikalar saqlanganida **qatorlar orasi 5-6 m.bo'lishi** kerak mashinalarga qatorlarga kirib-chiqishi uchun, **qatorda turgan mashinalar orasi 1-1,5 m. bo'lishi** kerak.

Yopiq maydonlar va naveslar tagida esa mashinalar orasida va **mashinadan devorgacha masofa 0,7 m., mashinalar orasi esa 1,0 m bo'lishi** kerak.

Traktor va avtomobillar uchun ehtiyot qismlarning quruq, isitiladigan va isitilmaydigan omborxonalar, naves ostida, stellajda saqlash lozim.

Yirik o'lchamli qism va detallar (ramalar, katoklar, yetaklovchi g'ildirak, gusenisalar zvenosi va boshqalar) **naves ostida saqlanishi kerak.**

Dvigatellarning zavod chiqargan **upakovkasi bilan saqlash** tavsiya qilinadi. Barcha tirqishlari yog'och probkalar bilan yopilgan bo'lishi kerak.

Uzatmalar qutisi, taqsimlash qutisi, reduktorlar, karter qutisi va orqa kupriklar tekis poddonlarda saqlanishi kerak.

Rezinotexnik mahsulotlar temir-betonli, g'ishtli, isitiladigan va isitilmaydigan, quruq, **yaxshi havo almashadigan xonalarda saqlanishi kerak.**

Quyosh nurining rezinotexnik mahsulotlariga to'g'ri tushishini oldini olish maqsadida **omborxonalar oynalari ichki tomondan sariq ranga buyaladi.**

Rezinotexnik mahsulotlarning kislotalar, yonuvchi materiallar bilan birga saqlash qat'iyan man etiladi.



**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**



E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!



**SHARIPOV ZAYNIDDIN
SHARIPOVICH**



“Muhandislik tizimlarini
boshqarish” kafedrası
dotsenti. t.f.n.

 + 998 71 237 05 86

 [Z.Sharipov @tiame.uz](mailto:Z.Sharipov@tiame.uz)

 Zayniddin Sharipov